



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxmon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA GIPERAKTIV BOLALAR BILAN ISHLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

UDK 373.2:376.1

Raimqulova Sojida Abdusaid qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lim" kafedrası magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uchraydigan giperaktiv bolalar bilan ishlash muammosining ilmiy-nazariy asoslari tahlil etilgan. Giperaktivlik tushunchasining mazmuni, kelib chiqish sabablari, psixologik-pedagogik xususiyatlari hamda giperaktiv bolalar bilan ishlashga oid zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv va individual yondashuvni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: giperaktivlik, DEHB (diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik buzilishi), maktabgacha ta'lim, psixologik-pedagogik yondashuv, individual rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, psixolog, ota-ona, ta'lim-tarbiya, xulq-atvor, rivojlanish, nazariya, yondashuv.

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of working with hyperactive children in preschool educational institutions. The content of the concept of hyperactivity, its causes, psychological and pedagogical characteristics, as well as modern approaches to working with hyperactive children are examined. The research findings contribute to improving inclusive and individualized approaches within the preschool education system.

Key words: hyperactivity, ADHD (attention deficit hyperactivity disorder), preschool education, psychological and pedagogical approach, individual development, social adaptation, psychologist, parents, education and upbringing, behavior, development, theory, approach.

Аннотация: В данной статье анализируются научно-теоретические основы работы с гиперактивными детьми в дошкольных образовательных организациях. Рассматриваются содержание понятия гиперактивности, причины её возникновения, психолого-педагогические особенности, а также современные подходы к организации работы с гиперактивными детьми. Результаты исследования способствуют совершенствованию инклюзивного и индивидуального подходов в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: гиперактивность, СДВГ (синдром дефицита внимания и гиперактивности), дошкольное образование, психолого-педагогический подход, индивидуальное развитие, социальная адаптация, психолог, родители, обучение и воспитание, поведение, развитие, теория, подход.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi individual farqlarni inobatga olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, giperaktiv xulq-atvor namoyon etuvchi bolalar bilan ishlash pedagog va psixologlardan chuqur ilmiy-nazariy bilimlarni, maxsus yondashuv hamda metodlarni talab etadi. Giperaktivlik bolalarning ijtimoiy moslashuvi, ta'lim-tarbiya jarayonlarida ishtiroki va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur masalaning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Har bir bolaning barkamol rivojlanishini ta'minlash, sog'lom psixologik muhit yaratish hamda maxsus pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan qaror va farmonlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy, emotsional hamda ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash mexanizmlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Bu esa giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish zaruratini yanada oshiradi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlash masalasini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlarni asoslash hamda ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish bugungi kunning muhim ilmiy va amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda giperaktivlik ko'pincha diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik buzilishi (DEHB) tushunchasi bilan izohlanadi. Ushbu holat bolaning psixik rivojlanishidagi muhim funksiyalar, xususan, diqqatni boshqarish, xulq-atvorni nazorat qilish va harakat faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonlarida buzilishlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Giperaktivlik nafaqat ortiqcha jismoniy harakatchanlik, balki bolaning emotsional barqarorligi va ijtimoiy munosabatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yetakchi tadqiqotchilar, jumladan, A. Barkley, L. S. Vygotskiy, A. R. Luriya va boshqa olimlar giperaktivlikni markaziy asab tizimining funksional yetilmaganligi bilan izohlaydilar. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, miya po'stlog'ining boshqaruv funksiyalari yetarli darajada shakllanmaganligi natijasida bolaning o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish imkoniyatlari cheklanadi. Ayniqsa, prefrontal soha faoliyatidagi yetishmovchiliklar impulsivlik va diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rsatiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yosh davrida giperaktivlikning namoyon bo'lishi bolaning yosh va rivojlanish xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u ko'pincha kundalik faoliyat, o'yin jarayoni hamda ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulotlar davomida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu davrda giperaktivlik asosan quyidagi belgilar orqali namoyon bo'ladi:

- bolaning uzoq vaqt davomida diqqatini bir faoliyat turiga qaratib tura olmasligi, tez chalg'ishi va faoliyatni oxirigacha yetkazmasligi;
- ortiqcha harakatchanlik, tinimsiz harakat qilish, o'tirib turish talab etiladigan vaziyatlarda ham jismoniy faollikni cheklay olmaslik;
- impulsiv xatti-harakatlar, ya'ni oldindan o'ylamasdan harakat qilish, navbat kutmaslik, savollarga shoshilinch javob berish;
- o'z xatti-harakatlarini ixtiyoriy nazorat qilishda qiyinchilik, kattalar tomonidan berilgan qoidalar va ko'rsatmalarga to'liq amal qilmaslik.

Mazkur belgilar maktabgacha ta'lim jarayonida giperaktiv bolalarning moslashuvini murakkablashtiradi hamda pedagogik jarayonda maxsus yondashuv va qo'llab-quvvatlash choralarini talab etadi. Shu bois, giperaktivlikni erta aniqlash va uning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish maktabgacha ta'lim tizimida samarali pedagogik faoliyatni tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi. Giperaktiv bolalar emotsional jihatdan beqaror, tez ta'sirchan va ijtimoiy munosabatlarda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning bilish jarayonlari, xususan, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarida nomutanosiblik kuzatiladi. Shu sababli, bunday bolalar bilan ishlashda individual yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash va pedagogik moslashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik nuqtayi nazardan, giperaktiv bolalarga nisbatan jazolash emas, balki rag'batlantirish, aniq va qisqa ko'rsatmalar berish, faoliyat turlarini tez-tez almashtirib borish samarali hisoblanadi. Bunda pedagog tomonidan bolaning ijobiy xatti-harakatlarini o'z vaqtida e'tirof etish, kichik yutuqlarini ham qo'llab-quvvatlash orqali uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish muhimdir. Rag'batlantirish jarayoni bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi, ortiqcha talab va bosimdan qochilishi lozim. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida harakatli o'yinlar, qisqa muddatli mashg'ulotlar, vizual vositalar va amaliy faoliyatga asoslangan metodlardan foydalanish giperaktiv bolalarning diqqatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Faoliyat turlarining mantiqiy ketma-ketlikda va qisqa vaqt oralig'ida almashib borilishi bolaning charchashining oldini oladi hamda uning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bundan tashqari, giperaktiv bolalar bilan ishlashda pedagog va psixolog hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Psixolog tomonidan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, relaksatsiya va o'zini nazorat qilishga yo'naltirilgan mashqlar bolaning emotsional holatini barqarorlashtirishga yordam beradi. Ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish esa pedagogik ta'sirning uzluksizligini ta'minlab, bolaning ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Zamonaviy yondashuvlar giperaktiv bolalar bilan ishlash masalasi maktabgacha ta'lim tizimida nafaqat psixologik, balki pedagogik yondashuvlarni ham talab etishini ko'rsatadi. An'anaviy metodlar ko'pincha bola xulqini nazorat qilishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar uning rivojlanishiga va ijtimoiy moslashuviga yo'naltiriladi.

Shu nuqtai nazardan, bir nechta ilmiy asoslangan yondashuvlar alohida ahamiyatga ega:

- nevropedagogik yondashuv giperaktivlikni bolaning neyrofiziologik xususiyati sifatida qabul qiladi va miya faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni taklif etadi;
- amaliyotda bu yondashuv miya boshqaruv zonalarini faollashtirishga xizmat qiladigan mashqlar, ikki qo'l bilan bajariladigan harakatlar hamda musiqali-harakatli o'yinlar orqali amalga oshiriladi, tadqiqotchi-



lar ta'kidlaganidek, bunday faoliyatlar bolaning diqqatini barqarorlashtirish va impulsiv xatti-harakatlarni kamaytirishga yordam beradi (Barkli, 2019; Vygotskiy, 2001);

- sensor integratsiya yondashuvi giperaktiv bolalarda sezgi axborotini qayta ishlashdagi nomutanosiblikni hisobga olgan holda turli sezgi tajribalarini uyg'unlashtirishga qaratiladi, amaliy tavsiyalar qatoriga qum, suv va plastilin bilan o'yinlar, turli fakturali buyumlar hamda tinchlantiruvchi sensor burchaklardan foydalanish kiradi;
- mindfulness (ongli diqqat) elementlari maktabgacha yoshga moslashtirilgan shaklda qo'llanilganda bolaning o'zini anglash va emotsiyalarini boshqarish qobiliyatini oshiradi, mashg'ulotlar qisqa muddatli nafas mashqlari, "jimlik o'yini" va emotsiyalarni nomlash kabi oddiy texnikalarni o'z ichiga oladi;
- o'yin terapiyasiga asoslangan yondashuv orqali bola xulqini modellashtirish va ijtimoiy qoidalarini o'rganish imkoniga ega bo'ladi, rolli o'yinlar, qoidali o'yinlar hamda dramatizatsiya elementlari yordamida pedagog bolani faol ishtirok etishga jalb qiladi;
- ota-ona-pedagog-psixolog uchligi modeli giperaktiv bolalar bilan ishlashda samarali natijaga erishish uchun uch tomonlama hamkorlikni nazarda tutadi, uy va MTM (maktabgacha ta'lim muassasasi) muhitida bir xil yondashuvni qo'llash bolaning rivojlanishini uzluksiz qo'llab-quvvatlaydi;

Ijoiy intizom (Positive Discipline) yondashuvi jazolashni rad etib, intizomni o'rgatish vositasi sifatida ko'radi, bunda bola xatolarini o'rganish imkoniyati sifatida qabul qiladi, hurmat va qat'iyatni uyg'unlashtiradi hamda tabiiy oqibatlar orqali ijoiy xulqni shakllantiradi. Yuqorida keltirilgan yondashuvlar maktabgacha ta'lim tizimida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy asoslangan, individual va kompleks usullarini tashkil etishga imkon beradi hamda bolaning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda uning ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi va ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlaydi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlash masalasi psixologik-pedagogik tadqiqotlarda dolzarb mavzu sifatida e'tiborga loyiqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, giperaktivlik – bu bolalarning markaziy asab tizimining funksional xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab hodisa bo'lib, uning namoyon bo'lishi diqqat yetishmovchiligi, impulsivlik va ortiqcha harakatchanlik bilan tavsiflanadi. Giperaktiv bolalarning emotsional beqarorligi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklari va bilish jarayonlaridagi nomutanosibliklar ularni pedagogik jarayonda individual yondashuvni talab qiladigan shaxs sifatida ajratib turadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, giperaktiv bolalar bilan ishlashda samarali yondashuvlar quyidagi asosiy tamoyillarni o'z ichiga olishi lozim: individualizatsiya, psixologik qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, faoliyat turini tez-tez almashtirish, o'yin va sezgi integratsiyasiga asoslangan mashg'ulotlar. Shu bilan birga, ota-ona, pedagog va psixologning tizimli hamkorligi bolaning rivojlanishini uzluksiz qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi.

Zamonaviy yondashuvlar, jumladan, nevro pedagogik, sensor integratsiya, mindfulness, o'yin terapiyasi va ijoiy intizom metodlari giperaktiv bolalarning diqqatini barqarorlashtirish, impulsiv xatti-harakatlarini kamaytirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu asosda maktabgacha ta'lim tizimida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, bolaning to'laqonli rivojlanishini ta'minlash hamda inklyuziv ta'limni ilgari surish uchun muhim shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barkley, R. A. (2019). Attention-Deficit Hyperactivity Disorder: A Handbook for Diagnosis and Treatment. New York: Guilford Press.
2. Vygotskiy, L. S. (2001). Pedagogicheskaya psikhologiya. Moskva: Prosveshchenie.
3. Luria, A. R. (1973). The Working Brain: An Introduction to Neuropsychology. New York: Basic Books.
4. American Psychiatric Association. (2013). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (5th ed.). Washington, DC: APA.
5. Barkley, R. A. (2015). Managing ADHD in Children: Practical Strategies for Parents and Teachers. New York: Guilford Press.
6. Greene, R. W. (2014). The Explosive Child: A New Approach for Understanding and Parenting Easily Frustrated, Chronically Inflexible Children. New York: HarperCollins.
7. Shapiro, E. S. (2011). Academic Skills Problems: Direct Assessment and Intervention (4th ed.). New York: Guilford Press.
8. Zentall, S. S. (2005). Theory- and Evidence-Based Strategies for Children with Attention Deficit Hyperactivity Disorder. Psychology in the Schools, 42(8), 851–863.
9. Green, C., & Chee, C. (2018). Mindfulness for Children with ADHD: Strategies for Teachers and Parents. London: Routledge.
10. Ota-ona pedagogik qo'llanma va maktabgacha ta'lim metodik materiallari. (2020). Toshkent: Markaziy Pedagogik Tadqiqotlar Markazi.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.